



Raqamli Texnologiyalar Asosida Milliy Iqtisod Tarmoqlarini Rivojlantirish Muammolari

Katta o'qituvchisi: **Bekbo'tayev H A**

E-mail: begnotayev@mail.ru^{1}

“TIQXMMI” Milliy tadqiqot universitetining Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar
instituti ^{1}

Annotatsiya: Maqolada raqamli texnologiyalarining o'ziga xos xususiyatlari, raqamli texnologiyalarni real iqtisodiyotga joriy qilishning obyektiv zarurligi, raqamli iqtisodiyotga berilayotgan ta'riflar, dunyodagi barcha davlatlarning, jumladan mamlakatimizning ham raqamli iqtisodiyotga o'tayotganligi bilan bog'liq muammolar va ular asosida milliy iqtisodni rivojlantirish masalalarini yoritib berishga harakat qilindi va ko'tarilgan masalar yuzasidan xulosalar berildi.

Kalit so'zlar: axborot texnologiyalari, raqamli texnologiyalar, internet, mobil tarmoq aloqalari. raqamli texnologiyalar, raqamli iqtisodiyot, internet, mobil tarmoq aloqalari, biznes, axborotlashgan jamiyat.

Национальная Экономика На Основе Цифровых Технологий Проблемы Развития Сетей

Аннотация: В статье была сделана попытка осветить специфику цифровых технологий, объективную необходимость внедрения цифровых технологий в реальную экономику, определения цифровой экономики, проблемы, связанные с переходом на цифровую экономику всех стран мира, в том числе нашей страны, и вопросы развития национальной экономики на их основе, даны выводы по поднятым вопросам.

Ключевые слова: информационные технологии, цифровые технологии, интернет, мобильные сети, цифровые технологии, цифровая экономика, интернет, мобильные сети, бизнес, информированное общество.

National Economy Based on Digital Technologies Problems of Network Development

Abstract: The article attempts to highlight the specifics of digital technologies, the objective need for the introduction of digital technologies into the real economy, the definition of the digital economy, the problems associated with the transition to the digital economy of all countries of the world, including our country, and the development of the national economy based on them, conclusions are given on the issues raised.

Keywords: information technologies, digital technologies, Internet, mobile networks, digital technologies, digital economy, Internet, mobile networks, business, informed society.



Kirish. Iqtisodiy adabiyotlarda raqamli texnologiyalar, raqamli iqtisodiyot kabi tushunchalar juda ko‘p martalab qo‘llanilib kelinmoqda va ularni insoniyat hayotining barcha jabhalariga joriy qilishga e‘tibor kuchaytirilmoqda. Dunyoning ko‘plab rivojlangan mamlakatlarida raqamli iqtisodiyot ularning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga sezilarli darajada ta‘sir ko‘rsatib kelmoqda. Shu boisdan ham mamlakatimiz raqamli iqtisodiyotga o‘tish yo‘lini tanladi. Bu tanlangan yo‘l milliy iqtisodiyotimiz taraqqiyoti uchun yangidan yangi imkoniyatlar va yo‘nalishlar eshigini ochib berishi, tabiiy.

Jahonda qisqa vaqtlar ichida raqamli texnologiyalar sohasidagi erishilgan taraqqiyot natijalari insonlar, kompaniyalar, firmalar va tashkilotlarda tubdan sezilarli o‘zgarishlarning sodir bo‘lishiga olib keldi. Bunday sa’y-harakatlar samarasi o‘laroq dunyo aholisining kompyuter va internetga kirish hamda uning xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlari yaratilmoqda. Zero, bugungi hayotimizni kompyuter va internet xizmatlarisiz tasavvur etishimiz qiyin.

Raqamli iqtisodiyot insonlarning umumiy manfaatlari uchun xizmat qilishi va barcha jabhalarni keng miqyosda qamrab olishi, tabiiy holga aylanmoqda. Bunday iqtisodiyot ko‘plab yangi bilim va ko‘nikmalarni, ijtimoiy himoya qilishning tubdan yangi choralari, mehnat va dam olish o‘rtasidagi sifat jihatidan yangi munosabatlarni talab qiladi.

Yangi yechimlarni izlash hukumatlar, fuqarolik jamiyatlari, siyosiy doiralar, ilmiy hamjamiyatlar tomonidan zamonaviy texnologiyalarni yaratish sohasidagi hamkorlikni talab qiladi. Har kuni biz raqamli texnologiyalarning tinchlikni mustahkamlashiga, inson huquqlarining kengayishiga va butun jamiyat manfaati uchun barqaror rivojlanishga qanday hissa qo‘shayotganiga ko‘plab dalillarning guvohi bo‘lmoqdamiz.

Mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotni faol rivojlantirish, barcha tarmoqlar va sohalarda, eng avvalo, davlat boshqaruvi, ta‘lim, sog‘liqni saqlash, sanoat, qishloq xo‘jaligida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. 2020 yilning 5 oktabrida O‘zbekiston Respublikasining “Raqamli O‘zbekiston-2030” milliy Dasturining qabul qilinishi fikrimizning yaqqol dalilidir.

Xususan, elektron hukumat tizimini takomillashtirish, dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalarining mahalliy bozorini yanada rivojlantirish, respublikaning barcha hududlarida IT-parklarni tashkil etish, shuningdek, sohani malakali kadrlar bilan ta‘minlashni ko‘zda tutuvchi 220 dan ortiq ustuvor loyihalarni amalga oshirish ishlari boshlangan.

Bundan tashqari, 40 dan ortiq axborot tizimlari bilan integratsiyalashgan geoportalni ishga tushirish, jamoat transporti va kommunal xizmatlar ko‘rsatish infratuzilmasini boshqarishning axborot tizimini yaratish, ijtimoiy sohani raqamlashtirish va keyinchalik ushbu tajribani boshqa hududlarda joriy qilishni nazarda tutuvchi «Raqamli Toshkent» kompleks dasturi amalga oshirilmoqda. Bunday ijobiy o‘zgarishlar, shubhasiz xalqimizning yanada to‘kin va farovon yashashlariga xizmat qiladi.

Asosiy qism. Zamonaviy raqamli texnologiyalar hayotimizning turli sohalarini va jamiyatimizni misli ko‘rilmagan darajada sifatli o‘zgarishlar bilan yangilab bormoqda. Bu ilmiy mulohazalarda axborot texnologiyalari, keyinchalik esa raqamli texnologiyalar (raqamli iqtisodiyot) nomini oldi. Yangi texnologiyalarning insoniyat jamiyatining barqaror rivojlanish



maqsadlariga erishishida muhim hissa qo'shishi va shu bilan birga ulkan imkoniyatlarni yaratib berishi muqarrar, albatta.

Ijtimoiy hayotimizda kuzatilayotgan obyekt, jarayon yoki hodisalarning holati to'g'risida yangi sifatdagi axborotlar olish uchun ma'lumotlarni to'plash, ularga ishlov berish va uzatish vositalari hamda usullarining majmui hisoblangan axborot texnologiyalaridan foydalanish hayotiy zaruriyatga aylanib ulgurdi.

Axborot texnologiyalari, shubhasiz raqamli iqtisodiyotning poydevoridir. Raqamli iqtisodiyotning ijtimoiy-iqtisodiy imkoniyatlarini to'liq ochib berish va uni milliy iqtisodiyotning barcha tarmoqlariga joriy qilish hozirgi kunning eng dolzarb masalasi bo'lib qolmoqda. Ushbu munosabatlarning mohiyatini ochib berish va ahamiyatini foydalanuvchilarga yetkazib borasida yechimini kutayotgan qator vazifalar turibdi.

Raqamli iqtisodiyot insonlarning umumiy manfaati uchun xizmat qilishi va keng miqyosda qamrab olinishi kerak. Yangi texnologiyalar, xususan, sun'iy intellekt muqarrar ravishda mehnat bozorida sezilarli o'zgarishlar, jumladan, ba'zi tarmoqlarda ish joylarining qisqarishiga olib kelsada, jamiyat miqyosida katta imkoniyatlarning paydo bo'lishiga olib keladi.

Raqamli iqtisodiyot ko'plab yangi bilim va ko'nikmalarni, ijtimoiy himoya qilishning tubdan yangi choralarini, mehnat va dam olish o'rtasidagi sifat jihatidan yangi munosabatlarni talab qiladi.

Yangi yechimlarni izlash hukumatlar, fuqarolik jamiyati, siyosiy doiralar, ilmiy hamjamiyat va texnologiya sohasidagi hamkorlikni talab qiladi. Har kuni biz raqamli texnologiyalarning tinchlikni mustahkamlashiga, inson huquqlarining kengayishiga va butun jamiyat manfaati uchun barqaror rivojlanishga qanday hissa qo'shayotganiga ko'plab misollarning guvohi bo'lmoqdamiz.

Mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotni faol rivojlantirish, barcha tarmoqlar va sohalarda, eng avvalo, davlat boshqaruvi, ta'lim, sog'liqni saqlash va qishloq xo'jaligida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Raqamli iqtisodiyot insoniyat taraqqiyoti va hayotini qaysi tomonga o'zgartiradi? Raqamli iqtisodiyotning rivojlanishida davlatning o'rni qanday bulishi kerak? Raqamli iqtisodiyotning rivojlanish jarayonlarini qanday o'lchash mumkin? Bu kabi savollarga javob berilishi va raqamli iqtisodiyotga o'tish barcha davlatlar, qolaversa xo'jalik subyektlari uchun ham o'ta dolzarb masala hisoblanishi, tabiiy. Ushbu maqolada shu kabi savollarga javob berishga harakat qilinadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Ilmiy adabiyotlarda va matbuot sahifalarida raqamli iqtisodiyotga ko'plab ta'riflar berilgan, jumladan, xorijiy manbalarda raqamli iqtisodiyotga raqamli axborot texnologiyalari va iqtisodiy agentlar o'rtasidagi o'zaro bog'lanish deb, boshqalarida esa uni xo'jalik subyektlarining internet bilan bog'langan holdagi iqtisodiy rivojlanish natijasi deb, ayrimlarida raqamli texnologiyalar va tegishli mahsulotlar va xizmatlarni yaratish, tarqatish va ulardan foydalanish bo'yicha faoliyat, degan, ta'riflar mavjud.

Raqamli iqtisodiyotga berilgan boshqa ta'riflarni ham keltirish mumkin. Darhaqiqat, raqamli iqtisodiyotga berilgan bu kabi ta'riflar uning mohiyatini to'g'ri ifodalab beradi, chunki



raqamli iqtisodiyotga texnologiyalar va iqtisodiy agentlar yoki internet bilan bog'langan rivojlanish jarayoni sifatida qarash o'rinli, ammo unchalik yetarli emas, chunki raqamli iqtisodiyot, avvalo raqamli axborot texnologiyalarining rivojlanishi va barcha davlatlar ijtimoiy-iqtisodiy yo'nalishlari taraqqiyotini ta'minlash bilan bog'langan.

Shu sababdan raqamli iqtisodiyotga har bir mamlakat milliy iqtisodiyotining barcha tarmoqlariga va ijtimoiy hayotining turli jabhalariga zamonaviy axborot texnologiyalari yutuqlarini joriy qilish va undan unumli foydalanish natijasida iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyotni ta'minlash, deb ta'rif berilsa yanada to'laroq bo'lar edi, deb hisoblaymiz.

Raqamli iqtisodiyotga berilgan ta'riflar ko'p, ularning ko'pchiligida uni axborot texnologiyalari rivoji bilan bog'lashgani haqiqatan ham to'g'ri, chunki raqamli iqtisodiyotga texnologiyalar va iqtisodiy agentlar yoki internet bilan bog'langan rivojlanish jarayoni sifatida qarash o'rinli, ammo unchalik yetarli emas, chunki raqamli iqtisodiyot, avvalo raqamli axborot texnologiyalarining rivojlanishi va barcha davlatlar ijtimoiy-iqtisodiy yo'nalishlari taraqqiyotini ta'minlash bilan bog'langan.

Ilmiy adabiyotlarda va matbuot sahifalarida raqamli iqtisodiyotga ko'plab ta'riflar berilgan, jumladan, xorijiy manbalarda raqamli iqtisodiyotga raqamli axborot texnologiyalari va iqtisodiy agentlar o'rtasidagi o'zaro bog'lanish deb, boshqalarida esa uni xo'jalik subyektlarining internet bilan bog'langan holdagi iqtisodiy rivojlanish natijasi deb, ayrimlarida raqamli texnologiyalar va tegishli mahsulotlar va xizmatlarni yaratish, tarqatish va ulardan foydalanish bo'yicha faoliyat, degan, ta'riflar mavjud.

Raqamli iqtisodiyotga berilgan boshqa ta'riflarni ham keltirish mumkin. Darhaqiqat, raqamli iqtisodiyotga berilgan bu kabi ta'riflar uning mohiyatini to'g'ri ifodalab beradi, chunki raqamli iqtisodiyotga texnologiyalar va iqtisodiy agentlar yoki internet bilan bog'langan rivojlanish jarayoni sifatida qarash o'rinli, ammo unchalik yetarli emas, chunki raqamli iqtisodiyot, avvalo raqamli axborot texnologiyalarining rivojlanishi va barcha davlatlar ijtimoiy-iqtisodiy yo'nalishlari taraqqiyotini ta'minlash bilan bog'langan.

Raqamli iqtisodiyotga o'tishdan kuzlangan asosiy maqsad nima? Bu har bir mamlakat milliy iqtisodiyotini optimal darajada rivojlantirish va shu orqali xalqning moddiy farovonligini ta'minlashdan iboratdir. Raqamli iqtisodiyot axborot texnologiyalari bilan bog'langan elektron tijorat, tovarlar ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatish sohalari bilangina cheklanib qolmasdan, shu bilan birga, milliy iqtisodiyotning sog'likni saqlash, fan va ta'lim, qurilish, energetika, qishloq va suv xo'jaligi, transport, geologiya, kadastr, arxiv, internet-banking kabi tarmoqlariga, ijtimoiy va huquqni muhofaza qilish sohalariga ham jadal kirib bormoqda va ularning har birida yuqori samara berishi ta'minlanmoqda.

Raqamli iqtisodiyotning dastlabki poydevori axborot texnologiyalari hisoblanadi. Uni raqamli axborot texnologiyalari, deb atashsa to'g'riroq bo'lar edi, chunki axborot texnologiyalarining asosida tegishli raqamlar yotadi. Ularning evolyutsiyasi bir necha bosqichlarga bo'linadi va o'ziga xos xususiyatlarga ega. Shubhasiz, raqamli axborot texnologiyalarining paydo bo'lishi va rivojlanishi jamiyat taraqqiyotining talabidan kelib chiqqan obyektiv jarayondir.

Bugungi kunda raqamli axborot texnologiyalarini targ'ib qilishning asosiy maqsadi har qanday strategik vazifalarni hal etishga, ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni optimal boshqarishni amalga oshirish bo'yicha qarorlar qabul qilishga imkon beradigan darajadagi axborot



texnologiyalari tizimini yaratishdir. Bu esa raqamli iqtisodiyotning rivojlanishiga o'z ta'sirini ko'rsatmasdan qolmaydi.

Hozirgi vaqtda dunyo reytingida yetakchilik qilib kelayotgan yigirma mamlakatda raqamli iqtisodiyot samarasi sifatida yiliga 2 trln. AQSH dollari miqdorida qo'shimcha mablag'lar yaratilmoqda. Ularning amalga oshirilishi firmalardagi mehnat unumdorligini 40 foizga, yalpi ichki mahso'lotni kamida 30 foizga oshirish imkonini berishi hisob-kitob qilingan. Shu bilan birga, qo'shib yozishga, yashirin iqtisodiyotning avj olib ketishiga va shu kabi illatlarning tomir yoyishiga to'siq bo'ladi. Yurtboshimiz Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlab o'tganidek, iqtisodiy o'sishni yuqori darajada ta'minlagan holda korrupsiya illatiniig oldini oladi va unga barham beradi.

Iqtisodchi olimlar tomonidan 2022 yilga kelib dunyo yalpi ichki mahso'lotining qariyb chorak qismi raqamli iqtisodiyot hissasiga tug'ri kelishi bashorat qilinayotgan bir sharoitda yangi iqtisodiyotni rivojlantirish zaruriyati yanada dolzarb tus oladi.

Ayrim manbalarda iqtisodiy rivojlantirishda dunyoda yetakchilik qilib kelayotgan davlatlardan biri bo'lmish Angliyada raqamli iqtisodiyotning yalpi ichki mahso'lotdagi ulushi 12 foizni tashkil qilgani holda, mamlaktimizda bu ko'rsatkich 2019 yilda 2 foizni tashkil qilgan, xolos. Yurtimizda 2023 yilga kelib, bu ko'rsatkichni 3 martaga oshirish kuzda tutilgan.


Xullas, dunyoning ko'pchilik taraqqiy etgan davlatlari raqamli iqtisodiyot asosida rivojlanayotgan bir paytda mamlakatimiz milliy iqtisodiyoti barcha tarmoq va sohalarini raqamlashtirish - jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuv, dunyo bozorida o'z o'rniga ega bo'lish, iqtisodiy barkarorlikni ta'minlash, samaradorlikka erishish va fukarolarimizga yetarli qo'layliklar yaratib berishning asosiy shartidir.

Mamlakatimizda 2020 yilni «Ilm - fan, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili» deb e'lon kilinishida juda katta ramziy ma'no bor. Shu yilning o'zida transport, geologiya, ta'lim, arxiv kabi sohalarini to'lik raqamlashtirish belgilandi. Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini barcha manfaatdor vazirliklar, idoralar, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlariga ko'rib chiqish, elektron raqamli imzodan foydalangan holda kelishish (viza qo'yish) uchun yagona elektron tizim- «project.gov.uz» joro'y etildi.

Ayni kunda Toshkent shahrida, bir qator viloyat markazlari va tumanlarda zamonaviy infratuzilmaga ega bo'lgan axborot texnologiyalari parki barpo etildi. Bunday parklar Nukus, Buxoro, Namangan, Samarqand, Guliston, Urganch va boshka shaharlarda ham tashkil etilishi raqamli iqtisodiyotga tomon qilingan katta qadamlarning debochasidir

Yurtimizda internet tizimini keng joriy qilish negizida raqamli iqtisodiyotga o'tishda jismoniy va yuridik shaxslarning davlat organlari bilan aloqa qilish shakllarini yanada rivojlantirish yuzasidan «Yagona interaktiv davlat xizmatlari» portali yangi versiyasining, O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining tadbirkorlar murojaatlarini ko'rib chikishi uchun virtual qabulxonasi – «business.gov.uz» portalining ishga tushurilishi muhim tadbirlarning boshlanishi, deb qaralishi mumkin.

Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarni rivojlantirish vazirligi axborot xizmati bergan ma'lumotlarga ko'ra, telekommunikatsiya infratuzilmasini rivojlantirish yo'nalishida ham bir qator ishlar amalga oshirilgan, jumladan, respublika bo'yicha 237 ta obyektda magistral telekommunikatsiya tarmoqlari kengaytirilib, ularning uskunalari modernizatsiya qilinib, magistral telekommunikatsiya tarmoqlari o'tkazuvchanlik qobiliyati viloyatlararo darajada 200



G bit s.ga, tumanlararo darajada esa 40 Gbit s.ga yetkazildi. Biroq bularning barchasi yetarli, degan xulosani bermaydi.

Demak, mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotga o'tish borasida ayrim ijobiy siljishlar bilan birga yechimini kutayotgan masalalar ham yetarlicha. Prezidentimiz ta'kidlaganidek, «Yurtimiz xalqaro axborot kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish indeksi bo'yicha 2019 yilda 8 pog'onaga ko'tarilgan bo'lsada, hali juda ham orqadamiz. Aksariyat vazirlik va idoralar, korxonalar raqamli texnologiyalardan mutlaqo yiroq desak, bu ham haqiqat».

Taklif va xulosa sifatida quyidagi fikrlarni keltirmoqchimiz:

- raqamli texnologiyalarni joriy qilish va uni jadal sur'atlarda rivojlantirish qator davlatlar uchun ustuvor yo'nalishlarning eng asosiysiga aylanib ulgurdi. Ular raqamli rivojlanishni amalga oshirish davrining uzoq davom etishi, ustuvorliklarning uzluksizligi, asosiy axborot - kommunikatsiya texnologiyalarini yaratishdan boshlab, ushbu sohada maqbul siyosatni shakllantirishga va raqamli texnologiyalarni keng joriy etish dasturlarini qo'llab - quvvatlashi bilan ajralib turadi.

- raqamli iqtisodiyotga o'tish dunyoning barcha mamlakatlari uchun birinchi darajali vazifa bo'lib turgan bir paytda O'zbekiston milliy iqtisodiyotining barcha sohalarini raqamlashtirish maqsadida jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuv, dunyo bozorida o'z o'rniga ega bo'lish, iqtisodiy barkarorlikni ta'minlash, samaradorlikka erishish va fukarolarimizga yetarli qo'layliklar yaratib berishning asosiy shartidir.

- xalqaro amaliyotga yuzlanadigan bo'lsak, raqamli iqtisodiyot zamonaviy raqamli axborot – kommunikatsiya texnologiyalari bilan bog'langan elektron tijorat, tovarlar ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatish sohalarini to'liq qamrab olgan.


- raqamli iqtisodiyotga o'tishdan kuzlangan asosiy maqsad ham - bu har bir mamlakat milliy iqtisodiyotini optimal darajada rivojlantirish va shu orqali xalqning moddiy farovonligini ta'minlashdan iboratdir.

- milliy iqtisodiyot tarmoqlarida va ijtimoiy sohaning barcha jabhalarida raqamli axborot texnologiyalarini jadal sur'atlar bilan joriy etish barcha mamlakatlar uchun bajarilishi lozim bo'lgan vazifadir.

- bugun jadallik bilan kechayotgan raqamlashuv jarayoni «yangi iqtisodiyot»ni, ya'ni raqamli iqtisodiyotni vujudga keltirdi. Kam o'rganilgan va kun sayin chuqur tomir otib borayotgan bu iqtisodiyot ishlab chiqaruvchilarga tadbirkorlikda va ijtimoiy sohalarda samarali marketing faoliyatini uyushtirish, xarajatlarni minimal miqdorda kamaytirib, maksimal foyda olish, tovarlarni sotish va xizmatlar ko'rsatishni muvaffaqiyatli amalga oshirishda katta imkoniyatlar yaratib bermoqda.

Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 19 fevraldagi PF – 5349 – sonli “Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi Farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 3 iyuldagi “O'zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida”gi 3822 - sonli Qarori.



3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 21 noyabrdagi "Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarining joriy etilishini nazorat qilish, ularni himoya qilish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 4024 - sonli Qarori.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2020 yil 24 yanvardagi Oliy Majlis yig'ilishiga Murojaatnomasi". // [http://o'z.politics/zbekiston-respublikasi – president –shovkat –mirziyoev -oliy-25-01-2020](http://o'z.politics/zbekiston-respublikasi-president-shovkat-mirziyoev-oliy-25-01-2020)).
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 28 apreldagi "Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida" qarori.
6. Lapidus L.V. Sifrovaya ekonomika: upravleniye elektronnim biznesom i elektronnoy kommersiyey.-M.:INFRA, 2019.
7. G'o'lomov S.S. va boshqalar. Raqamli iqtisodiyotda blokcheyn texnologiyalari.-T., 2019.